
**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TAЪLIM, FAN VA
INNOVACIYALAR VAZIRLIGI**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**TRANSLATION AND INTERCULTURAL
COMMUNICATION THROUGH THE
ENGLISH LITERATURE AND LINGUISTICS**

Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO'PLAMI

13 MAY, 2023

4. **Je n'en crois pas un mot.** – Biror so'ziga ishonmayman.
5. **Quoi?!** – Nima?! Nima deyapsiz?! Rostdanmi?! *Birgina so'roq olmoshida savol, hayrat ifodasi bilan ko'tariluvchi ohang berilganda, ishonchsizlik mazmuni aks etadi.*
6. **Mon œil!** – Ishonmayman! Aslo bunday emas! XIX asr oxirida « *il n'y en a pas plus que mon œil* » ko'rinishida shakllangan frazeologik birlik ishonchsizlik, shubha-gumonni ifodalaydi. Ihora ko'z bilan ko'rimguncha, isbot bo'lmasligiga ishora qiladi.
7. **Je suspecte.** – Shubham bor. Ishonmayman. Ishonish qiyin.
8. **Tomber des nues.** – Juda hayratda qolmoq. Dong qotmoq.
9. **On ne me la fait pas.** – Meni ishontirisholmaydi. Aslo ishonmayman.
10. **Être pris au dépourvu.** – Kutilmagan holatdan hayratga tushmoq, birdan hayratlanmoq. *Ushbu frazeologik birlik fransuz tilidagi "etre surpris a l'improviste, être mis dans l'embarras" birikmalari bilan ma'nodosh bo'la oladi.*
11. **Être sous le choc.** – Juda hayratga tushmoq, angrayib qolmoq, qotib qolmoq.
12. **Pas que je sache!** – Bilmasam. Hayronman. *Ushbu ibora fransuz tilida "à ma connaissance, dans la mesure où je sais cela, où je peux en juger" kabi ekvivalentlarga ega.*

Tarjima jarayonida so'z birikmalarining semantik hamda tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchi navbatda o'tni tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qo'llanmasin hammasi o'tni aniqlab keladi va ot gapda eng muhim ma'noni ifodalaydi. Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi ma'no guruhtarini ajratib olish hisoblanadi. Gapning ma'no guruhi ajratib olingach, ot va sifat o'rtasidagi grammatik aloqalar turi aniqlanadi. Otdan oldin kelgan so'z va so'zlar, uni aniqlab keladi, ularni agar gap fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinsa, uni o'zbek tili grammatikasi qoidalari asosida va aksincha, agar gap o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilinsa, fransuz tili grammatikasi normalariga asoslanib tarjima qilinadi. Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va shakllanish imkoniyatlari keng bo'lib, ular mohir san'atkor qo'lida har gal yangi emotsional bo'yoq kasb etadi, o'z ta'sir kuchini yanada orttiradi. So'z ustalari frazeologizmlardan ustalik bilan stilistik maqsadlarda foydalanish uchun ularning ma'nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga intiladilar.

Adabiyotlar :

1. Claire Miquel, Communication progressive, Niveau avancé. CLE International, SEJER/Paris, 2017. P 167-168.
2. Kholova Sh.D., "Some features of certain phraseological units translation used in French literature of the nineteenth century", European journal of interdisciplinary research and development, 2022-yil 18-noyabr, volume 9, 70-74-betlar.
3. Sh.D.Xolova, "Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm : tasnif va tadqiqot tahlili", Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2022-yil dekabr, 6/2022 son, 92-97 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679
4. Nafisa, K. . (2022). On Anglophone Borrowings in the Contemporary Russian Media. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(5), 158–163. Retrieved from <https://context.reverso.net/traduction/francais-anglais/pas+que+je+sache>

BOLALAR O'YINLARI XALQNING MILLIY AN'ANALARIDAN SO'ZLAYDI

Adizova Obodon Istamovna

BuxDU Fransuz filologiyasi kafedrasi dotsenti

G'aybullayeva Gulmera Sayfulla qizi BuxDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalq o'yinlari, milliy o'yinlar, bolalar o'yinlarining yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, boy ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalarini asrab-avaylash, xalq tomonidan yaratilgan milliy o'yinlar umrboqiyiligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar, milliylik, kayfiyat, o'yinchoqlar, xalq qo'shiqlari

Xalq o'yinlari, milliy o'yinlar, bolalar o'yinlari yosh avlodni tarbiyalashda "hayot maktabi" vaifasini o'tagan. O'yin - turli ifodali vositalar bilan ma'lum qoida yoki oldindan kelishilgan shartlar asosidagi jismoniy musobaqalar, bellashuvlar, tafakkur bahslari va ijrochilik talablaridan vujudga kelgan milliy qadriyat hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badantariyasidagi o'rni, o'yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to'xtalgan. Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniylar chavgon, nard, shaxmat, tirandozlik, qilichbozlik, chavandozlik, milliy yoshlar o'yinlari xususida yozib qoldirgan. Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to'ylar munosabati bilan tashkil etilgan o'yinlar haqida ko'pgina ma'lumotlar bor. Ularda o'yinlarning uyushtirilishi, ijrochilari, o'tkazish qoidalari bayon etilgan. Milliy o'yinlar tarixini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'utit turk" asarining o'rni beqiyos. Asarda xalq o'yinlarining bir yuz ellikdan ziyod turi tilga

olingan. Jumladan “qorang’uni” (qorong’ida qo’rg’on olish), “bandol” (asir olish), “o’tish-o’tish” (davra o’yini), “chavgon” (to’p o’yini), qilichbozlik, nayzadorlik va boshqa o’yinlar haqida ham ma’lumot beriladi. Lug’atda izohi berilgan o’yinlarning bir nechtasi hozirgi kunda ham bolalar uchun qiziqarli mashg’ulot sanaladi. “Alpomish” dostoni xalq o’yinlarini o’rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda kurash, ot poygasi, uloq, nayza sanchish, kamondan o’q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o’yinlar negizida mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat, ma’naviy va jismoniy komillik kabi fazilatlar o’z ifodasini topgan. Doimiy o’tkaziladigan o’yinlar bilan birga har bir faslga xos o’yinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uyg’onib, tollar kurtak chiqarganda-“tol bargak”, dala gullari ochilganda gul o’yini”, pishiqchilik paytida danak, yong’oq o’yinlari, arg’imchoq uchishlar sevib o’ynalgan. Kech kuz, qishda yog’ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o’yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda “qorxat”, “qorbo’ron”, yomg’ir yoqqanda “yomg’ir yog’aloq”, kuchli shamol esganda “bo’ron-bo’ron”, sovuq o’z kuchini ko’rsatganda barcha sandal atrofida yig’ilib “topishmoq top”, “tez aytish”, “kim aytdi” kabilar o’ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha “uloq-ko’pkari” musobaqalari o’tkazilgan. Bayram kunlari varrak uchirish, halinchak uchish kabi turli o’yinlar o’ynaladi. Dalayu qirlarda, bog’u rog’larda xalq sayillari qizigandan qiziydi. Xalq o’yinlari kishiga o’zgacha xushnudlik ulashadi, insonning kayfiyatiga ijobiy ta’sir etadi. U yoshlarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo’lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi. Milliy o’yinlar qadimiy madaniyatning go’zalligini namoyon etuvchi bir ko’zgudir.

O’yinchoqlar haqida gap ketganda esa mavzu yanada qiziqarliroq bo’ladi. Chunki unda bolalar yarmarkadan sotib oladigan qo’g’irchoqlari haqida bo’ladi. Bular bolalar yil bo’yi o’ynaydigan qo’g’irchoqlar bo’lgan. Qo’g’irchoqlar to’g’ridan-to’g’ri faqat Zulmat paytida ko’chirilishi kerak bo’lgan. Unda cherkovlarning qo’ng’iroqlarini ifodalovchi shovqinlardan xristianlikning cherkovlarida gi qo’ng’iroqlariday qilishlari kerak bo’lgan. Xuddi shunday, qizlarning qo’g’irchoqlari dastlab turli xudolarning vakillari bo’lgan deb hisoblangan. Marokashda qo’g’irchoqlar hali ham Yomg’irni ifodalaydi va qurg’oqchilik paytida ular tantanali ravishda olib ketiladi. Shuning uchun ular ko’chma muqaddas haykalchalar deb o’ylangan. Bular deyarli uch-to’rt asr oldin barcha qizlar uchun umumiy o’yinchoq bo’lib hisoblangan. Dunyo bo’yicha qo’g’irchoq o’ynash qizchalar uchun onani o’ynash demakdir. Onani o’ynash biologik jihatdan xuddi oldindan mashq qilgandek bo’lgan. Xuddi hassa bilan tasvirlangan ot dunyoning barcha xalqlarida o’g’il bolalarning oldingi mashqi bo’lgani kabi. Hatto Neolit qabrlaridan loydan yasalgan hayvonlar topilgan. Ular o’yinchoqlarni yoki hayvonlarni xudolar deb tasavvur qilishgan. Rojdestvoda bolalar bog’chalari uchun yaratilgan hayvonlarni odamlar tasvirlab eslashadi. Bu Marseldagi insonlar uchun aniq misol bo’la oladi. Xuddi shuningdek, kulolchilik ishlari orasida hayvonlar haqida ko’plab ishlarni uchratish mumkin. U yerda hushtak chalayotgan qushlarning qiziq bir qatori bor. Bu ularning juda yaxshi o’yini bo’lib, bunda dastlab hushtak chalayotgan qushlar ma’lum bir marosimlarda ishlatiladigan narsalar bo’lgan. Ba’zilarining ichi bo’sh, ba’zilariga suv solib tabarruk qush kabi to’ldirib qo’yishgan va bulbulning juda qadimiy qo’shig’i kabi o’z xohishiga ko’ra taqlid qilishgan. U ko’plab mashhur qo’shiqlarda saqlanib qolgan, ularning zaiflashgan aks-sadosi Romeo va Julietda uchraydi. Shimoliy Fransiya bolalari tomonidan ko’tarilgan va Belgiyada hanuzgacha “ziyosat bayroqlari” ko’rinishidagi o’yinda esa eski ma’noga ega bo’lgan kichik bayroqchalar muqaddas bo’lib hisoblanadi. Bir so’z bilan aytganda, o’yinchoqlar nafaqat qiziqarli balki o’zining foydaliligi uchun kerak bo’lgan mavzudir. Ularda har qanday qadimiy va ibtidoiy odat va e’tiqodlarni uyg’otadigan ma’lumotlarni topish mumkin. Bolalar o’yinlarining barchasi milliy va qadimiy bo’lib hisoblanadi. Biz ularni unutmashimiz kerak. XVII-asrga oid qo’g’irchoqlar, pierrotlar, arlekinlar va kolumbinlar, bugungi kunda adabiyotshunoslikda “zoologik roman” deb ataladi chunki, ko’p o’yinlarning qahramonlari hayvonlar bo’lgan. Shuning uchun Kipling, Pergaud, Kolett ertaklari va La Fonten masallari bolalar uchun juda qiziq bo’lib hisoblanadi. Chunki ular bolalarning tasavvurlarini orttiradi va ularni hayajonga soladi.

Dunyo xalqlari tarixini, uning betakror madaniyatini, boy ma’naviy qadriyatlarini aks ettirib kelayotgan xalq og’zaki ijod namunalarini saqlash, ajdodlar yaratgan nomoddiy merosni avaylash, bu yodgorliklarning inson ma’naviy kamolotidagi o’rnini ochib berish hamda uni kelajak avlodga yetkazish folklorshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo’lib hisoblanadi. Shunday qilib, qadimgi xalqlar bolalarning ko’plab umuminsoniy o’yinlari orqali ularning ota-bobolari yashagan davrning urf-odatini, milliy qadriyatini, madaniyatini va intellektual tembrini saqlab qolgan. Bu ularning og’zaki va yozma yodgorliklarining boy merosining namunalari ekanligidan dalolat beradi.

Sobiq sho’rolar davrida o’zbek xalq milliy harakatli o’yinlarida juda ko’p qoida va me’zonlar, jumladan: o’yin boshlash uchun bolalarni chaqirish va to’plash, qura tashlash, o’yinni tamomlash, rag’batlantirish, taqdirlash, jazolash va boshqalar o’zgarishlarga duch keldi. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bo’lgan, albatta. Ijobiy tomoni harakatli o’yinlar irminologiyasi turli milliy va baynalmilal so’zlar hisobiga boydir. Salbiy tomoni, shu xalq yaratgan o’yinlardagi milliylik bo’yog’i o’zgardi, ohori to’kildi, ya’ni ko’pgina o’yinlar umumiylik sifatini kasb etdi, bu shu xalq urf-odati, udumlari, madaniyatining tabiiyligiga putur yetkazildi degan so’zdir. Yoki buni xalqning ma’naviyati, qadriyatini yo’qotishdagi ilk qadamlardan biri deb tushunsa ham bo’ladi. To’g’ri, yetmish yil mobaynida hammamiz ma’lum bir ko’rsatmalar asosida ishladik, endi esa mustaqil mamlakat bo’ldik. Shuning uchun hozirgi kunda xalqimizning barcha jabhalardagi madaniy merosini, ma’naviyatini, madaniyatini tiklashimiz va uni rivojlantirishimizni o’z oldimizga qo’yg’an asosiy vazifalarimizdan biri deb qarashimiz kerak. Shuningdek, xalq milliy

harakatli o'yinlari, raqslari va sport turlari singari o'zining bitmas - tugalmas bilim va tajriba sarchashmasiga ega. Shu boisdan milliy harakatli o'yinlarni o'rganish, keng jamoatchilik asosida tadqiq etish, ularni o'quvchilarning jismoniy madaniyati jarayoniga tadqiq etish ayni muddaodir.

Milliy xarakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishning o'ziga xos tomonlari mavjud. Shuning uchun ham o'yinning nozik tomonlarini bilishning ham ahamiyati kattadir. O'yinning bolalarni o'yinga chaqirish va to'plash, o'yinni boshlash uchun qura tashlash, o'yinni tamomlash kabi o'yin mazmunini to'liq ochib beradigan o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan turib sog'lomlashtirish, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni, jismoniy sifatlar(tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik va boshqalar) ni tarbiyalab bo'lmaydi. Xalqning mehr qoni bilan yaratilgan har bir o'yini, o'yinning umrboqiyiligi, unga qanday munosabatda bo'lishiga ham bog'liq. Binobarin, o'yin har bir xalqning qalb ohanglari, hayol tashvishlari va quvonchlarni, turmush tarzini, xususiyatlarni belgilaydi. Uni saqlab, e'zozlab, me'yoriga yetkazib o'ynab bilish faqat shu xalq vakiligagina xosdir. Birorta millat o'zgalari o'yinini, ularchalik zavq-shavq bilan, ko'tarinki ruh bilan o'ynay olmaydi. Sababi, har bir millat o'ziga xos uslubga, xususiyatga ega. Bu esa shu millatga ona tabiat tomonidan berilgan in'omdir. Uni ko'r-ko'rona o'zgartirish mumkin emas, o'zgartirishlarni turmushning o'zi taraqqiyot, rivojlanish, turmush tarzidan kelib chiqib kiritib boradi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish va ilmiy adabiyotlar tahlili bolalarni o'yinga chaqirish va o'ynovchilarni to'plash odat tusiga kirganligini, harakatli o'yinlarni o'ynash uchun ma'lum belgilangan vaqt, joy tanlanmagan yoki maxsus xozirlik ko'rilmaganligini ko'rsatadi. Ular qachon to'planishsa o'sha payt, o'sha vaqtda o'yin o'ynalavergan. Shuning uchun ham o'yinlar boshlanishidan oldin bolalarni yig'ish, ularni bir joyga to'plashda har bir bolaning jonbozligi, tashabbus ko'rsatishi talab qilingan. Ota-onalar o'z bolalarini uydan chiqishiga turli xil munosabatda bo'lishadi. Ko'pincha, ota-ona bolasiga javob bermaslikka harakat qiladi. Bolalar buni juda yaxshi bilishadi, ular o'rtog'ini uydan chaqirib olish yo'lini qidirishadi. Bu haqda Jahongirov o'zining "O'zbek bolalar folklori" nomli risolasida juda yaxshi to'xtalgan: Ular uch-to'rta bo'lib, o'rtog'ining hovlisiga boradilar, ko'chada turib chaqira boshlaydilar. Masalan, qizlar dugonalarini chaqiradilar, o'g'il bolalar o'rtoqlarini chaqiradilar. Ba'zi joylarda o'yinga quyidagicha chaqiriladi:

Tokchada bug'doy sepuvdim,
Undimikino, undimikin?
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikino, yotdimikin?

Ayrim joylarda esa keskinroq, murosasizroq ravishda chaqiriladi:

Tomda tovuq qolarmu
Ayvoningdan o'tarmu
O'yin yoqmas bolalar
Namozshomdan qotarmu
Kel-ho kel!

Dangasalik qilib ko'chaga chiqishga uringanlar darhol tanqidga uchrashgan.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan bu yurtning mingdan ortiq milliy o'yinlari, qo'shiqlari va xirgoyilari mavjuddir. Ular xalqning tarixi, urf-odatlarini va an'analaridan so'zlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnold Van Gennep. Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec
2. Contes nouveaux ou les Fées à la mode Par Madame D, tome premier, Paris, Vve de Th. Girard, 1998
3. Fayzulloyev O. M. O'zbek folkloridagi lingvokulteremalarning inglizcha tarjimada berilishi (Bolalar folklori va ertaklar misolida) Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 7 b.
4. O.I.Adizova —World literature and biographical method. ISJ Theoretical & Applied science. Year: 2018. Issue: 10.volume: 66. Section29. Literature. Folklore. Translation. P.327-330.
5. Адизова О. Свообразие научного творчество Азиза Каюмова / Modern scientific challenges and trends. – Warsaw, Poland. ISSUE 1. – 2018. – P.87-6. Адизова О. Адабиётда биографик методнинг генезиси ва шаклланиши / Scientific Publishers «iScience» Modern scientific challenges and trends. London, UNITED KINGDOM. ISSUE 1. 28 th. June 2018. – P.35-39.
7. Pierre Gripari : les contes de la rue Broca 1925.P.91.
8. Fazliddin G. Peculiarities and Differences of French, Uzbek and Russian Fables: Ideology and Image Analysis //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – T. 18.
9. D.B.Narzullaeva Developing the communication competence of french-speaking students through dialogues in the development of oral speech Scientific Journal, 53–57.
10. Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. – С.54.

ILK FRANSUZ GRAMMATIKLARI ILMİY QARASHLARIDA URG'ULARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich

Buxoro Davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fransuz tili orfografiyasiga oid bo'lgan urg'ularning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Urg'u to'g'risida fransuz olimlarining ilmiy nazariy qarashlari ilgari surilgan. Shu bilan birga urg'uning kelib chiqishi, qo'llanilishi to'g'risidagi fonetik qoidalar misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: urg'u, stress, chastota, eksperimental fonetika, tarixiy fonetika, intensivlik, kuchli ohang, og'zaki nutq, talaffuz, bo'g'in,

Urg'u murakkab hodisa bo'lib, uning tarkibiy qismlarini (balandligi, davomiyligi, intensivligi) ajratish qiyin. Grammatiklar faqat o'zlarining hissiy idroklariga tayanishga majbur bo'lgan bir paytda bu haqiqatdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qadimgi mualliflar tomonidan berilgan tushuntirishlar ularning shaxsiy kuzatishlari, qabul qilgan nuqtai nazarlari va tadqiqot kontekstiga qarab o'zgarishi ajablanarli emas.

Fransuz tilshunos olimi C. Astesanoning fikricha stress asosiy chastotaning ijobiy o'zgarishi, davomiylikning oshishi (uzayish) va kuchliroq intensivlik bilan namoyon bo'lishini ko'rsatib beradi¹. Ammo 20-asrning boshlarida birinchi eksperimental fonetiklar tomonidan ishlab chiqilgan asboblarsiz, faqat tinglash orqali ushbu uchta jismoniy parametrlarni ajratishda muvaffaqiyat qozonish juda qiyin, bu esa tovush balandligi va ovoz balandligi parametrlariga ko'proq to'g'ri keladi. Yana bir qiyinchilik fransuz urg'u tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi, mualliflar buni ba'zan tushunish, kuzatish va ta'riflash qiyin kechadi deb ta'kidlashadi. Darhaqiqat, bu tilda qadimgi tillar yoki so'z urg'usi bo'lgan tillar bilan taqqoslanadigan urg'u yo'q degan fikrga Dodane, Shveytser va Pagani-Naudet kabi olimlarning qarashlari mushtarakdir. Shunday qilib, fransuz tilidagi so'nggi urg'u so'z bilan emas, balki so'z turkumi (guruh urg'usi) bilan bog'liq bo'ladi va Astésanoning ilmiy qarashiga ko'ra, uning xususiyatlari guruh chegarasini belgilash (chegara oldidan cho'zish va) bilan birlashadi. Aynan shuning uchun ham Rossi va Fonagy kabi fransuz fonotistlari fransuz tilini "aksentsiz til" deb atashadi va zamonaviy fransuz tilidagi jumla urg'usiga xos bo'lgan noaniqlikni ko'rsatib berishdi.

Fransuz tili grammatikasi tarixi 1530 yilda Jon Palsgravening "Lesclarcissement de la langue françoise" nashri bilan boshlanadi. Palsgravening so'zlariga ko'ra, oxirida joylashgan va ovoznining melodik ko'tarilishi bilan erishiladigan iboraning urg'usi bilan qiziqadi. Shunday qilib, quyidagi misollarning og'zaki nutqda "il a vng corps fort ámiable, tu dis vray mayntenánt" jumlasida "ilavncor fortamiáble, tvdisvraymantenánt" kabi eshitilishi "ovozni baland ko'tarish, lekin ikkinchisida faqat yoqimli va mayntenánt" kabi talaffuz uslublariga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan².

Baddeley va Kibbee kabi olimlar ta'kidlashadiki: Agar tovush balandligidagi urg'u jumla darajasida tushuntirilsa, bu yerda so'z yasalişiga sabab bo'ladi, bir bo'g'inda urg'u yo'q, ko'p bo'g'inlilar uchun esa (uzunlik) urg'u oxirgi bo'g'inda bo'ladi¹. Hozirgi zamon tili bilan aytganda, tonik urg'u miqdor, guruh urg'usi esa intonatsiya orqali amalga oshiriladi, deyish mumkin. Palsgraveda u turli stsenariylarning bir qator tushuntirishlari sifatida o'qiladi.

Tonik aksent

O'zgaruvchan urg'uga qarama-qarshi bo'lgan o'zgarimas urg'uni anglashning birinchi izlari XVII asrda Charlz Maupasning "Grammaire et syntaxe françoise" asarida o'z aksini topgan. Chet ellik talabalarga murojaat qilib, u fransuz tilidagi urg'u pozitsiyasining muhimligini ta'kidlaydi, odatda so'z oxirida joylashgan qo'shimchalarni aniq ishlatib, ularning talaffuzini tasvirlaydi va ularni o'z muhitidan ajralib turishi uchun bu bo'g'inlar ustidan juda tez o'tmaslik kerakligini taklif qiladi. Denis Vairasse d'Allais (1681), aksincha, urg'u o'rindig'ini (so'z oxirida joylashgan) balandlikning o'zgarishi va intensivlikning oshishi bilan bog'laydi, ma'ruzachi tegishli bo'g'inda ovozni chiqaradi, kuch bilan uni ko'taradi (1681: 41). Muallif miqdorni eslatmaydi (qarang. Schweitzer, 2018).

Biroq, bir nuqta 17-asrning oxirida qo'lga kiritilganga o'xshaydi: tonik urg'uning identifikatsiyasi, bu atama Sesar Chesneau Du Marsais tomonidan "Encyclopedie" ning "aksent" maqolasida aniq qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Bu urg'u matn va uning mazmuniga bog'liq emas, balki so'zning o'ziga xosdir. Bunda u ishlatiladigan tilga bog'liq, shuning uchun har bir tilning o'ziga xos urg'usi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astésano, C. (2017). *Le statut de l'accent initial dans la phonologie prosodique du français – Enjeux descriptifs et psycholinguistiques*. Mémoire d'HDR, Université Toulouse, Jean

Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman

36	Malaka oshirishning nazariy asoslari. Madaniyat muassasalarining vocal o'qituvchilari va qo'shimcha ta'lim	A.M.Dushabayev (Jizzax)	69
37	Milliy frazeologizmlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari	M.A.Radjabova, Yu.Ya.Shukurova	71
38	Realias and the problem of understanding the text	F.X.Azimova (Jizzakh)	72
39	O'zlashgan so'zlarning zamonaviy nemis tilidagi roli	M.T.Babayev	74
40	Urg'uning semantic-grammatik va uslubiy xususiyatlari	N.N.Salixova	76
41	Discursive importance of literary translation	N.A.Haydarova	77
42	Translation equivalence problem	N.S.Zokirova	79
43	Xushmuomalalik, evfimizm va feys refleksiyasi	N.X.Ruziyeva	81
44	Topishmoqlardagi mushtarak obrazlar haqida	S.S.Xudoyev	82
45	Language learning in early childhood	D.A.Yarmatova (Jizzakh)	85
46	Goethe ist die grosse figure der welf literatur	F.U.Yakubov (Jizzakh)	86
47	Factors affecting language learning	G.G.Abdullayeva	88
48	Using peer -assessment and self- assessment in the EFL classroom	B.Ikromova	90
49	Экспериментальная проверка эффективности разработанных методов обучения креативному письму	C.Ж.Хамраходжаева (Ташкент)	91
50	Individual aspects of teaching speaking skills: fluency and accuracy	F.X.Bozorova (Jizzakh)	93
51	Chet tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiya va zamonaviy innovatsion texnologiyalar, metodlardan foydalanish	D.A.Dadajanova (Toshkent)	95
52	Talabalarni xorijiy tillardan kasbiy mobilligini rivojlantirish metodikasi	T.X.Suyunova (Jizzax)	96
53	Advantages of teaching English to young learners through songs	G.I.Xamroyeva	98
54	Понятие английских терминов «пилигрим» и «паломничество»	F.S.Voxidova, R.Xolikov	99
55	Efficacious methods to teach a child English as a second language	F.F.Djalolov, Sh.I.Rahmatova	101
56	The productive methods of rising students' motivation in English classes	F.F.Djalolov	102
57	Hoerverstehen-eine der wichtigsten Fertigkeiten der Fremdsprache	M.Mamashayeva, NamDu	104
58	Modern approaches and perspectives of teaching foreign languages	N.N.Salixova, R.R.To'yurodova	105
59	Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi	F.O.Narzullayeva	107
60	Ingliz tilini o'rganishda kollokatsiyalardan foydalanishning ahamiyati	Yu.Ch.Mehmonova	108
61	Lingvomadaniy aspect tushunchasining vazifadorlik ko'lami	M.X.Ruziyeva	111
62	The specificities of the concept of "anger" in the linguoculture of the English language	D.F.Ubaydullayeva	112
63	Cross -cultural pragmatics as a branch of pragmatics	Sh.I.Azimova	114
64	The role of educational tourism for sustainability	N.Mahmudova	116
65	Tarjima strategiyalarini o'rganish muammolari	Sh.R.To'yboeva	119
66	Konseptning sintaktik ifodalanishi	Z.N.Sirojova	121
67	Tarjimonlik faoliyati va tarjima tarixi	F.B.Irgasheva	123
68	Fransuz va o'zbek tillarida hayrat va shubha diskursida frazemalar ishtiroki	O.I.Adizova, Sh.D.Xolova	124
69	Bolalar o'yinlari xalqning milliy an'alaridan so'zlaydi	O.I.Adizova, G.S.G'aybullayeva	125
70	Ik fransuz grammatiklari ilmiy qarashlarida urg'ularning o'rnini va ahamiyati	R.R.Radjabov	128
71	Functions of metaphoric terms in religious language	M.O.Subxonova	129
72	Badiiy matnlar tarjimasida frazeologizmlarning tarjima muammolari	D.F.Abduraximova	132
73	Ilmiy-texnik matnlar tarjimasining o'ziga xos jihatlari	D.I.Mehmonova	133
74	The image of sweetheart in Shakespeare's sonnets	N.N.Salixova Z.N.Muhiddinova	134
75	Communication and politeness strategies	N.X.Ruziyeva, M.T.Shavkatova	135
76	The difficulties of translating Navoi's ghazals into English	D.Z.Olimova, Z.N.Turaeva	137